

O‘ZBEKISTON XARITASI NEGA G‘ALATI ? UNING O‘SH VOQEALARIDAGI AHAMIYATI

Muallif: Qadirberganov Bexruz Ortiqboy o‘g‘ili

***Annotatsiya:** O‘zbekiston xaritasi murakkab tarixiy, siyosiy va etnik holatini aks ettiradi. Har bir davlatning hududiy chegaralari tarixiy aloqalar va ma‘muriy qarorlar asosida shakllantiriladi. O‘zbekistonning shakli ham aynan shu tarixiy va siyosiy kontekstda o‘zining noyob ko‘rinishini olgan. O‘zbekiston xaritasining 2010-yillardagi O‘sh voqealaridagi ahamiyati tahlil qilindi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi chegaralar, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi va O‘sh viloyatidagi etnik guruhlar orasidagi aloqalar bu voqealarda muhim ro‘l o‘ynagan.*

***Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston xaritasi, O‘sh voqealari, etnik to‘qnashuvlar, Sovet Ittifoqi, Farg‘ona vodiysi, milliy ziddiyatlar, hududiy aloqalar, geosiyosiy ta‘sir, sharqiy hududlar, diplomatik munosabatlar, mintaqaviy barqarorlik, Qirg‘iziston.*

O‘zbekiston xaritasi ba‘zan g‘alati yoki o‘ziga xos deb hisoblanadi. O‘zbekistonning geografik xaritasi va chegaralari hech qanday geometrik shaklga o‘xshamaydi. O‘zbekistonning 5 ta qo‘shni davlatlar bilan chegaralari mavjud va bu chegaralar ko‘pincha o‘zgaruvchan bo‘ladi. Sababi esa chegaralarning murakkabligi hisoblanadi.

Sovet ittifoqi va tarixiy omillar: O‘zbekistonning hozirgi shakli va chegaralari Sovet ittifoqining bir qismi sifatida tashkil topgan. XX asr boshlarida Sovetlar O‘rta Osiyo hududlarini ma‘muriy jihatdan qayta tashkil etib, yangi respublikalarni yaratishgan. O‘zbekistonning hozirgi chegaralari ham aynan shu davrda belgilangan. Shu sababdan, ba‘zi hududlar boshqa davlatlar bilan tutashib ketgan, bu esa O‘zbekistonning notekis, tekisliklardan ajralgan shakliga olib kelgan. Sovetlar davridagi siyosiy va iqtisodiy tartib, geografik chegaralarni va hududiy shakllarni yangidan belgilashga olib keldi. Ular ko‘p hollarda tabiat va

madaniy hududlar bilan emas, balki siyosiy maqsadlar bilan o'lg'angan edi. Natijada, O'zbekiston xaritasi va uning g'alati ko'rinishi tarixiy izlarni saqlab qoldi.

O'zbekiston xaritasi va uning mintaqadagi ahamiyati, ayniqsa, 2010-yillarda O'sh voqealarida juda muhimdir. O'zbekiston va Qirg'izistondagi chegaraviy hududlar, etnik guruhlarning joylashuvi va mintaqaviy siyosiy tangliklar bu voqealarda yirik ro'l o'ynagan. Ushbu maqolada O'zbekiston xaritasi va O'sh voqealarining o'zaro aloqalarini tahlil qilamiz.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara, ayniqsa O'sh viloyatidagi etnik va siyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, xaritada ta'siri sezilarli. O'zbekistonning sharqiy hududlari (Andijon, Namangan va Farg'ona) va Qirg'izistonning janubi-g'arbiy qismi (O'sh viloyati) geografik yaqinlik, shu jumladan, hududda yashovchi etnik guruhlarning aralashuvi, uzoq tarixga ega. Bu hududlar ko'p asrlar davomida bir-biriga integratsiyalashgan va etnik, madaniy hamda iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'langan. 1990-yillarda Sovet ittifoqining qulashidan keyin, bu mintaqada milliy va etnik aloqalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'sh voqealar: 2010-yillarda O'shda ro'y bergan yirik etnik to'qnashuvlar, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegaraviy mintaqada yuzaga kelgan muammolarni yanada oshiradi. Ushbu voqealar asosan, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida chegaraviy mintaqada yuzaga kelgan muammolarni yanada oshiradi. Ushbu voqealar asosan o'zbek va qirg'iz millatlari o'rtasida kechgan bo'lib, asosan etnik ajralish, iqtisodiy resurslarni taqsimlash, yer masalalari va hokimiyat taqsimlanishini nazorat qilishga oid ziddiyatlar bilan bog'liq edi.

Voqea boshida, O'sh shahrida o'zbek va qirg'iz aholisining o'zaro ijtimoiy va iqtisodiy farqlari kuchaygan edi. Sovetlar davrida bu hududlar orasidagi chegaralar bor xil tarzda belgilanmagan va bu milliy o'ziga xosliklar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni kuchaytirgan. Natijada, 470 odam halok bo'lgan, 2000 kishi yaralangan, 19

kishi shu paytgacha topilmagan, butun mahallalar vayron boʻlgan, 1500 fan ortiq uylar yonib ketgan, 100 minglab odamlar Oʻzbekistonga qochishga majbur boʻlganlar.

Xulosa

Oʻzbekiston xaritasining sharqiy hududiy joylashuvi va etnik guruhlarining oʻzaro aloqalari Oʻsh voqealaridagi ahamiyatini oshiradi. Oʻzbekiston va Qirgʻiziston oʻrtasidagi chegaralar, etnik guruhlar orasidagi munosabatlar va hududiy ziddiyatlar voqealarni yanada murakkablashtirdi. Oʻzbekistonning geografik pozitsiyasi va bu hududdagi siyosiy va iqtisodiy taʼsiri: Oʻsh voqealaridagi kutilgan va kutilmagan omillarning yoritilishida katta roʻl oʻynaydi. Oʻzbekistonning sharqiy viloyatlari Qirgʻiziston bilan yaqinligi, xalqaro siyosat va mintaqadagi barqarorlikni shakllantirishda muhim omil boʻlib qolmoqda.

Geografik va etnik ahamiyatini hisobga olib, Oʻzbekiston va uning qoʻshni davlatlari oʻrtasida tinchlik va barqarorlikni taʼminlashga boʻlgan intilish davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Mirzayev D. Oʻzbekistonning hududiy rivojlanishi va maʼmuriy tizimi. Toshkent fan va texnologiya
- Jumaniyozov S. Sovet ittifoqi davrida Markaziy Osiyoning siyosiy geografiyasi. Toshkent: Yangi Oʻzbekiston
- Toshkent davlat universiteti geografiya fakulteti: Markaziy Osiyo mamlakatlarning geografiyasi va siyosiy tizimi. Toshkent: TDU.